| | payshanba | may | qish |
| | juma | iyun | |
| | shanba | iyul | |
| | | avgust | |
| | | sentyabr | |
| | | oktyabr | |
| | | noyabr | |
| | | dekabr | |






www.ziyouz.com kutubxonasi



1. Mashinangizni qachon yuvasiz?



2. Buvingizga qachon qo'ng'iroq qilasiz?



3. Siz
uchrashmoq



4. Ali
soch oldirmoq



5. Vohid
daraxt o'tqazmoq



6. Shokir
tuzatmoq



7. Hikmat
xat yozmoq



8. A: Vali! Qachon shimingni dazmollaysan?
B: ..........................................

**Lug'at**

| | |
|---|---|
| daraxt | - tree |
| xat | - letter |
| o'tqazmoq | - (to) plant |
| dazmollamoq | - (to) iron |



www.ziyouz.com kutubxonasi




## QUVONCHLI YANGI YIL.

Bugun dekabr oyining oxirgi kuni, ya'ni yangi yil arafasi. Xonim va janob Tursunovlar yangi yilni yaxshi kutib olayotganliklari uchun xursandlar.

Farzandlari Botir va Go'zal ular bilan birga. Tursunovlar oilasi baxtiyor oila. Kelayotgan yil butun oila uchun juda omadli bo'ladi.

Kelayotgan yil ular qisqa muddatli ta'tilga ketadilar. Xonim Tursunovaning Buxoroda yashayotgan ukasini ko'rgani ketadilar. Go'zal o'rta maktabni bitiryapti, u kelayotgan yil Toshkentga borib, universitetga kiradi. Botir mashina haydash uchun hujjat oladi. U pul yig'adi va arzongina mashina sotib oladi. Ko'rib turganingizdek, Tursunovlar oilasi yangi yilni kutyaptilar. Yangi yil ular uchun ajoyib bo'ladi.

Tursunovlar oilasiga baxt tilaymiz.

TEKSHIRISH .....

SAVOLLARGA JAVOB BERING.

1. Go'zal kelayotgan yilda nima qilmoqchi?
2. Go'zal qayerdagi universitetga kirmoqchi?
3. Sizning ukalaringiz kelgusi yil nima qilmoqchilar?
4. Kelgusi yil kim hujjat olmoqchi?
5. Tursunovlar oilasi yangi yilda ta'tilga chiqadimi?
6. Tursunovlar oilasi nega yangi yilni kutyapti?



www.ziyouz.com kutubxonasi

# ... -(I)SHNI XOHLAYMAN

| | |
|---|---|
| dars tayyorlamoq | xohlayman |
| kinoga tushmoq | xohlaysan |
| ayron ichmoq | xohlaydi |
| futbol o'ynamoq | xohlaymiz |
| televizor ko'rmoq | xohlaydilar |



A: Ertaga nima qilasan?

B: Bilmadim. Cho'milishga borgim kelyapti. Faqat havo ertaga bulut bo'ladi, menimcha.

A: Rostdanmi? Qayerdan bilding?

B: Radiodan.

A: Qiziq, gazetada ertaga quyoshli kun bo'ladi deb yozishibdi.

B: Seniki to'g'ri chiqishini xohlayman. Chindan ham cho'milgim kelayapti.



dam olishgа chiqmoq
yomg'ir
yaxshi bo'lmoq



chang'ida uchmoq
iliq
qorli bo'lmoq



dengizga bormoq
bulutli
quyoshli



daraxt o'tqozmoq
issiq
salqin



qayiqda suzmoq
tuman
ochiq



hayvonot bog'iga bormoq
sovuq
salqin

Bugun havo qanaqa?
Ertaga qanaqa bo'ladi?

**BAHSLASHINGLAR ............**

**Lug'at**

ichmoq - (to) drink
yomg'ir - rain

xohlamoq - (to) want



www.ziyouz.com kutubxonasi

# SOAT NECHA BO'LGANINI BILASIZMI?






besh daqiqa
o'tdi



Soat necha?
Soat o'ndan besh daqiqa o'tdi



chorakta
o'tdi



Soat necha?
Soat o'n ikkidan chorakta o'tdi



yigirmata
o'tdi



Soat necha?
Soat oltidan yigirmata o'tdi.



yarim



Soat necha?
Soat etti yarim

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| o'tdi | - passed | yarim | - half |
| soat | - clock, watch | | |



www.ziyouz.com kutubxonasi




 yigirma besh daqiqa bor


Soat necha?
Soat yigirma beshta kam to'qqiz.

 chorak kam


Soat necha?
Soat chorak kam sakkiz.

 o'n daqiqa bor


Soat necha?
Soat o'nta kam etti.

 besh daqiqa bor


Soat necha?
Soat beshta kam besh.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| chorak | - quarter | kam | - little, few |
| daqiqa | - minute | | |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# SOAT NECHA?

Soat o'n bir.
Soat o'n birdan chorakta o'tdi.
Soat o'n bir yarim.
Soat choraktakam o'n ikki.
Soat o'n ikki.

## KINO SOAT NECHADA BOSHLANADI?



A: Kino soat nechada boshlanadi?

B: Soat sakkizda boshlanadi.

A: Soat sakkizdami? Kech qolamiz.

B: Nimaga? Soat necha?

A: Soat etti yarim. Hozir uydan chiqishimiz kerak.

B: Hozir, chiqolmayman. Soqolimni olayapman.

A: Tezroq bo'l. Kino boshlanib qoladi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## XUDDI SHUNDAY QILIB SIZ TUZING

A. ........................................................................................................
B. ........................................................................................................
A. ........................................................................................................
B. ........................................................................................................
A. ........................................................................................................
B. ........................................................................................................
A. ........................................................................................................



Futbol soat nechada boshlanadi?
14.00/13.30
cho'milmoq



Samolyot soat nechada uchadi?
16.15/15.45
kiyinmoq



O'zbek tili darsi qachon boshlanadi?
9.00/8.45
uyg'onmoq



Avtobus qachon ketadi?
7.00/6.30
tayyorlanmoq



Poezd qachon ketadi?
5.15/4.30
dush qabul qilmoq



Spektakl qachon boshlanadi?
20.30/20.00
shim qidirmoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

# BEKZOD MASHHUR VANGANI KO'RGANI BORDI



Bekzod kelajagi haqida o'yladi. Vanga Bekzodning kelajagini ko'rdi. Vanganing gapiga ko'ra kelgusi yil Bekzod uchun ajoyib bo'ladi.



Yanvarda chiroyli qiz bilan tanishadi va unga oshiq bo'ladi.



Fevralda unga uylanadi.



Martda yaxshi joyga dam olishga ketadi.



Aprelda kasal bo'ladi.



Mayda ota-onasi boshqa shaharga ko'chadi.



Iyunda uyi yonadi.



Iyulda do'stlari tug'ilgan kunini qutlashadi.



Avgustda ishdan haydaladi.



Sentyabrda yangi ishga o'tadi.

**Lug'at**

chiroyli - beautiful
ish - work, job
uylanmoq - (to) get married



www.ziyouz.com kutubxonasi



Oktyabrda halokatga uchraydi, faqat shikastlanmaydi



Noyabrda lotoreyaga mashina yutib oladi



Dekabrda ota bo'ladi



Vanganing gapiga ko'ra bular bo'ladi. Faqat Bekzod shularga ishonmaydi. Chunki hech qaysi inson kelajak haqida xabar bera olmasligini juda yaxshi biladi. Bular xayol emasmi?

**Bu kabi narsalarga ishonasizmi?**

**TEKSHIRISH ....**

1) A. Ayt-chi menga yanvarda nima bo'ladi?
   B. Yanvardami? Yanvar oyi juda yaxshi bo'ladi.
   A. Rostdanmi? Nima bo'ladi?
   B. Sen juda chiroyli bir inson bilan topishasan va bir- biringizni sevasizlar.
   A. Ha! Bu juda yaxshi.

2) A. Ayt-chi, fevralda nima bo'ladi?
   B. Fevraldami? Fevral yomon oy bo'ladi.
   A. Rostdanmi? Nima bo'ladi?
   B. Sen juda yomon shamollaysan.
   A. O'-o' ! Bu juda yomon.

**SIZ BAJARING ...**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. Mart. | 4. Aprel. | 5. May. | 6. Iyun. | 7. Iyul. |
| 8.Avgust. | 9. Sentyabr. | 10. Oktyabr. | 11. Noyabr. | 12. Dekabr. |



www.ziyouz.com kutubxonasi

## XULOSA

| | |
|---|---|
| Nima | qilaman?<br>qilasan?<br>qiladi?<br>qilamiz?<br>qilasiz?<br>qiladilar? |

o'qiyman - olaman
o'qiysan - olasan
o'qiydi - oladi
o'qiymiz - olamiz
o'qiysiz - olasiz
o'qiydilar - oladilar

| | | | |
|---|---|---|---|
| Men kiyimlarimni yuvaman | bugun<br>bugun ertalab<br>tushdan keyin<br>bugun oqshom<br>bugun kechqurun | ertaga<br>ertaga ertalab<br>ertaga peshinda<br>ertaga oqshom<br>ertaga kechqurun | hoziroq<br>birozdan keyin<br>darhol<br>biroz oldin<br>birozdan so'ng |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mashinamni tuzataman | bu<br>keyingi | hafta<br>oy<br>yil<br>yoz<br>qish | dushanba<br>seshanba<br>chorshanba<br>juma<br>shanba | yanvar<br>fevral<br>mart<br>may<br>iyun | ıyul<br>birozdan keyin<br>sentyabr<br>noyabr<br>dekabr |

ish qilgim kelyapti
ish qilging kelyapti
ish qilgisi kelyapti
ish qilgimiz kelyapti
ish qilgingiz kelyapti
ish qilgilari kelyapti



www.ziyouz.com kutubxonasi

# BUGUN QANDAYSIZ? O'ZINGIZNI QANDAY HIS ETYAPSIZ?









A. Nima bo'ldi?
B. Boshim og'riyapti.



qornim og'riyapti



tishim og'riyapti



belim og'riyapti



qulog'im og'riyapti



tomog'im og'riyapti



yo'talyapman



A. Bugun o'zingizni qanday his etyapsiz?
B. ........................................

A. Buni eshitganimdan xursandman.



A. Bugun o'zingizni qanday his etyapsiz?
B. ..............................................

A. Nima bo'ldi?



www.ziyouz.com kutubxonasi

# BUGUN NIMA QILDINGIZ?

Har kuni ishlayman.
Har kuni pianino chalaman.
Har kuni dam olaman.



Kecha ishladim.
Kecha pianino chaldim.
Kecha dam oldim.

ishlayman ishladim chalaman chaldim o'ynayman o'ynadim

## KECHA NIMA QILDINGIZ?


1. ishlamoq


2. ovqat pishirmoq


3. telefon qilmoq


4. tuzatmoq


5. tish cho'tkalamoq


6. raqsga tushmoq


7. tozalamoq


8. televizor ko'rmoq


9. o'yin o'ynamoq


10. uy tozalamoq


11. soqol olmoq


12. kulmoq


13. tozalamoq


14. yig'lamoq


15. tinglamoq


16. esnamoq


17. baqirmoq


18. bo'yamoq


19. kutmoq


20. ekmoq

### Lug'at

ishlamoq - (to) work
o'ynamoq - (to) play
tozalamoq - (to) clean
chalmoq - (to) play
ovqat - food, meal



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| ishladim | ishlamadim | | qildim? |
| ishlading | ishlamading | | qilding? |
| ishladi | ishlamadi | Nima | qildi? |
| ishladik | ishlamadik | | qildik? |
| ishladingiz | ishlamadingiz | | qildingiz? |
| ishladilar | ishlamadilar | | qildilar? |



A. Muzaffar o'zini qanday his qilayapti?
B. Juda yaxshi emas.
A. Nima bo'ldi?
B. Beli og'riyapti.
A. Beli og'riyaptimi? Nega?
B. Kecha kun bo'yi basketbol o'ynagan.



Aziza



Aziz



O'zingiz



Hilola



Farhod




Salima



Dilfuza



Zuxra



Zafar



www.ziyouz.com kutubxonasi



Sayyora



Saidakbar



Otabek



Xolida



Mohira



Nuriddin

**UCHRASHMOQ:**

Bugun o'zingizni yaxshi his qilmayapsiz.
Shifokorga telefon qiling.

A. Assalomu alaykum doktor, men Azizman.
B. Vaalaykum assalom. Bugun o'zingizni qanday his qilyapsiz?
A. Bugun o'zimni yaxshi his qilmayapman.
B. Buni eshitganimga xafa bo'ldim. Nima bo'ldi?
A. ..................................................................
B. Nima sababdan? Bir sababi bormi?
A. Ha, doktor. Kecha ........................ .
B. Tushundim, davolanishni xohlaysizmi?
A. Ha, iltimos, meni qachon davolashingiz mumkin?
B. Ertaga soat beshda keling.
A. Juda yaxshi. Katta rahmat.





www.ziyouz.com kutubxonasi

# O'QISH



## MEHMON KUTISH

Sobirovlar oilasi kecha kechqurun qo'shnilarini mehmondorchilikka taklif qildilar. Mehmonlari uchun katta tayyorgarlik ko'rdilar va kun bo'yi ishladilar.

Ertalabdan hammalari bog'da ishlashdi. Kichik qizlari Nodira bog'ni tozaladi. O'g'illari Nozim devorni boyadi.

Munavvar opa gul ekdi. Najmiddin aka zinani tuzatdi.



Tushdan keyin Sobirovlar oilasi uyda ishlashdi. Nodira polni artdi va gilamlarni supurdi. Nozim esa mebellarni artdi va yerto'lani tozaladi. Najmiddin aka bozordan kerakli narsalarni olib keldi. Munavvar opa butun vaqtlarini oshxonada o'tkazdilar. Kechki ovqat va olmali tort pishirdilar.

Barcha tayyorgarlik soat o'n sakkizda tugadi. Sobirovlar uyining ichkari va tashqarisi top-toza bo'ldi.



Mehmonlar soat yettida keldilar. Ularni "Xush keldingizlar" deb kutib olishdi. Mehmonlar mehmonhonada o'tirib choy ichdilar, dasturxondagi nozune'matlardan yedilar. Samimiy suhbatlashib o'tirdilar. Bolalari, ishlari, o'zaro munosabatlari haqida gaplashdilar. Uyni va bog'ni tomosha qilib xursand bo'ldilar.



Kechki ovqat soat yigirmada suzildi. Mehmonlar palovni mazza qilib yedilar. Ayniqsa, Munavvar opa pishirgan tort hammaga juda yoqdi.

### Lug'at

| | | | |
|---|---|---|---|
| mehmon kutish | - to have a guest, (to) host | taklif qilmoq | - invite |
| tayyorgarlik | - preparation | kun bo'yi | - all day |
| ekmoq | - (to) plant | supurmoq | - (to) sweep |
| pishirmoq | - to cook | munosabat | - relation |
| tomosha qilmoq | - to watch | ovqat suzildi | - the meal is ready |



www.ziyouz.com kutubxonasi



Kechki ovqatdan so'ng dam olib hordiq chiqarishdi. Nozim rubob chaldi, singlisi Nodira qo'shiq aytdi. Keyinroq Sobirovlar mehmonlarga vidiofilm ko'rsatdilar. Birgalikda musiqa tingladilar. Hamma juda xursand bo'ldi.

Ko'rganingizdek, mehmonlar bu kecha juda yaxshi dam oldilar. Ularning hech biri uyiga ketishni xohlamas edi.

- SIZ ... OILANGIZ BILAN MEHMONGA BORGANMISIZ?
- AYTING-CHI, SIZNIKIGA QACHON MEHMON KELDI?

NAZORAT

SAVOLLARGA JAVOB QAYTARING ...

1. Mehmonlar soat nechada kelishdi?
2. Uyga kirgach, avval qayerda o'tirdilar?
3. Ovqatdan keyin nima yedilar va nima ichdilar?
4. Mezbonlar qanday ovqatlar pishirdilar?
5. Ovqatdan keyin Nodira nima qildi?
6. Mehmonlar bu oqshom vaqtlarini qanday o'tkazdilar?
7. Mehmonlarga nima juda yoqdi?
8. Siz do'stlaringizni mehmonga chaqirdingizmi?



MEHMONDORCHILIKDA

O'zingizga yoqqan mehmondorchilikni aytib bering.
- Kimnikiga bordingiz?
- Sizni qanday kutib olishdi?
- Nimalar yedingiz?
- Nimalar ichdiniz?
- Boshqalar nima qilishdi?
(Nima yeyishdi? Nimalar haqida suhbatlashishdi?)

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| hordiq chiqarmoq | - (to) relax, (to) have a rest | qo'shiq aytmoq | - (to) sing |
| ko'rsatmoq | - (to) show | xohlamoq | - (to) want |
| haqida | - about | mehmonga chaqirmoq | - (to) invite |



www.ziyouz.com kutubxonasi

kecha ishladim
kecha ishlamadim

Kecha ishladingmi?
- Ha, ishladim. ( - Yo'q, ishlamadim)







Kecha | ertalab, tushda, tushdan keyin, kechqurun, kechasi

O'tgan | kun, hafta, oy, yoz, yil




1. Kecha fizikadan tayyorlandingmi?



2. Kecha ertalab oynalarni tozaladingmi?



3. Kecha tushdan keyin rubob chaldingmi?



4. Ular kecha kechasi do'xtir chaqirishdimi?



5. Lobar kecha ertalab magnitofon tingladimi?



6. Abror kecha bog'ni tozaladimi?

**Lug'at**

soch taramoq - (to) comb
bahor - spring
kuz - autumn
rubob chalmoq - (to) play rubab
o'tgan kun - yesterday
yoz - summer
qish - winter



www.ziyouz.com kutubxonasi

bordim
bormadim

- Ha, bordim.
- Yo'q, bormadim.






1. Kecha chang'i uchishga bordingmi?



2. Bugun ertalab tramvayga mindingmi?



3. Bugun ertalab soat oltida uyqudan turdingizmi?



4. Abror kecha kechasi ko'p uxladimi?



5. Lobar kecha uzum oldimi?




6. Nodir o'tgan hafta buvisiga xat yozdimi?



7. Bugun kitob o‘qidingizmi?



8. Kecha qiladigan ishlaringni bajardingmi?



www.ziyouz.com kutubxonasi

# SHAHLONING BAXTSIZ KUNI



1. Shahlo kecha oqshom mehmonga bordi.



2. Bugun juda kech uyg'ondi.



3. Avtobusga ulgurmadi.



4. Ishga piyoda ketdi.



5. Ishga kech qoldi.



6. Boshlig'i uni koyidi.



7. Bugun juda xafa bo'ldi.



A. Xush kelibsan, Shahlo. Bugun kuning qanday o'tdi?
B. Juda yomon o'tdi.
A. Nima bo'ldi?
B. Tushdan keyin boshim og'ridi.
A. Boshing nima uchun og'ridi?
B. Chunki boshlig'im meni urishdi.
A. Boshlig'ing nima uchun urishdi?
B. Chunki ishga kech bordim.
A. Nima uchun ........................?
B. Chunki .................................?
A. Nima uchun ........................?
B. Chunki .................................?
A. Nima uchun ........................?
B. Chunki .................................?
A. Nima uchun ........................?
B. Chunki kecha kechasi mehmonga borgan edim.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ulgurmadi | - (to) missed | piyoda | - on foot |
| kech qolmoq | - (to) be late | koyimoq | - to scold |
| yomon o'tmoq | - (to) pass badly | nega | - why |
| nima uchun | - why, what for | chunki | - because |



www.ziyouz.com kutubxonasi




- Kecha mehmonga bordingizmi?
- Kecha kechqurun nima qildingiz?
- Bugun kech turdingizmi?
- Bugun soat nechada uyg'ondingiz?
- Bugun maktabga soat nechada keldingiz?
- Bugun maktabga o'z vaqtida etib bordingizmi?

**SABABLAR**



**Ba'zan maktabga kech qolasizmi?**
**O'qituvchingizga ko'pincha nima deysiz?**

- Bugun kechroq uyg'ondim.
- Bugun ............ ulgurolmadim. (avtobus, tramvay, trolleybus)
- Mazam bo'lmadi, .................. og'ridi. (boshim, oshqozonim)
- Maktabga kelishdan oldin ................ borishim kerak edi. (aloqa bo'limiga, bankaga, do'xtirga)
- Maktabga kelayotib yo'lda ................ ko'rib qoldim. (eski tanishimni, xolamni)
- .................. esimdan chiqibdi, uyga qaytib bordim. (kitobim, papkam, ..............)
- Kimdir ................ o'g'irlabdi. (velosipedimni, papkamni)
- ..........................................................................................................
- ..........................................................................................................
- ..........................................................................................................
- ..........................................................................................................



www.ziyouz.com kutubxonasi

# KECHIRASIZ (UZR), KECH QOLDIM.




A. Kechirasiz, kech qoldim.
B. Nima bo'ldi? Kech turdingmi?
A. Yo'q, kech turmadim.
B. Avtobusga ulgurmadingmi?
A. Yoq, avtobusga ulgurdim.
B. Unda nega kech qolding?
A. Kimdir velosipedimni o'g'irlab ketdi.
B. Mayli, xafa bo'lma.

A. Kechirasiz, ............................ .......................... .
B. Nima bo'ldi? Nima uchun ..............? ............... kasalmi?
A. Yo'q, .................. .................... .
B. ..................... ..................... .
A. Yo'q, .................. .................... .
B. Unday bo'lsa, .................. ..................?
A. .................... .................... .
B. Mayli, bo'lar ish bo'pti.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## ISHGA KECH QOLDIM



- Alisher har kuni soat yettida uyg'onadi. Yigirma daqiqa sport bilan shug'ullanadi. Dush qabul qiladi, yuvinadi. Yaxshilab nonushta qiladi. Uydan soat sakkizda chiqadi. Ishga ko'pincha mashinasida ketadi. Soat sakkiz yarimda ishda bo'ladi.

- Bugun Alisher yettida uyg'onmadi. Soat oltida turdi. Ertalabki badantarbiyani yigirma daqiqa emas, faqat besh daqiqa qildi. Uzoq vaqt dush qabul qilmadi, tez-tez yuvindi. Nonushta ham qilmadi, faqat choy ichdi. Uydan soat sakkizda chiqmadi. Soat yettida chiqdi.

- Alisher bugun bir soat erta chiqdi. Chunki mashinasi buzuq edi. Endi ishga avtobusda ketishi kerak. Tuman markazigacha ikki kilometr yurdi. O'n besh daqiqa avtobus kutdi. Avtobusdan tushgandan keyin yana uch kilometr piyoda yurdi.

- Chindan ham, bugun Alisher erta uyg'ondi va uydan barvaqt chiqdi. Ammo ishga o'z vaqtida kelmadi. U qirq besh daqiqa kech qoldi. Boshlig'ining jahli chiqdi va uni urishdi.

Bechora Alisher, ishga o'z vaqtida borish uchun ko'p harakat qildi, ammo baribir kech qoldi.

### NAZORAT




1. Alisher ertalab soat nechada uyg'onadi?
2. Alisher ertalab nima ishlar qiladi?
3. Alisher ishga nega mashinasida ketmadi?
4. Alisher ishga qanday bordi?
5. Alisher ishga o'z vaqtida bordimi?
6. Alisherning mudiri nima uchun jahl qildi?
7. Alisher ishga vaqtida yetib borish uchun nimalar qildi?

Doimiy qiladigan ishlaringizdan boshqa ishlar ham qildingizmi? Siz ham shunga o'xshash voqeani boshingizdan kechirganmisiz? Bu haqda yozing.

### Lug'at

| | | | |
|---|---|---|---|
| shug'ullanmoq | - (to) spend time on | nonushta | - breakfast |
| tez-tez | - quickly | erta chiqmoq | - (to) leave early |
| buzuq edi | - (to) be broken | baqirmoq | - (to) shout, (to) cry |
| yurmoq | - (to) walk | tuman markazi | - downtown |
| to'g'ri gap | - that's right | o'z vaqtida | - in time |
| baribir | - any way; it doesn't matter | jahl qilmoq | - (to) be angry |



www.ziyouz.com kutubxonasi

baxtli edim - baxtli bo'lgandim
baxtli eding - baxtli bo'lganding
baxtli edi - baxtli bo'lgandi
baxtli edik - baxtli bo'lgandik
baxtli edingiz - baxtli bo'lgandingiz
baxtli edilar - baxtli bo'lgandilar

charchagan edim - charchagandim
charchagan eding - charchaganding
charchagan edi - charchagandi
charchagan edik - charchagandik
charchagan edingiz - charchagandingiz
charchagan edilar - charchagandilar



Vitamin ichmasdan oldin juda kuchsiz edim.
Kecha charchagandim.
Onam charchagan edilar.
Ukam ham charchagan edi.
Ammo hozir juda baquvvatmiz.
Chunki vitamin ichdik. Siz ham sinab ko'ring. **Xo'sh, qalaysiz?**

Sport bilan shug'ullanmasdan oldin juda semiz edim. Opam turmushga chiqishdan oldin juda semiz edi. Bir oy oldin men ham juda semiz edim. Ammo hozir ozg'inman. Chunki badantarbiya bilan shug'ullandim. Siz ham shunday qilib ko'ring. **Xo'sh, qalaysiz?**

| | | |
|---|---|---|
| kecha bugun<br><br><br>xafa xursand | o'tgan hafta bu hafta<br><br><br>charchagan baquvvat | kecha ertalab bugun ertalab<br><br><br>kir toza |
| ikki kun oldin bugun<br><br><br>kasal sog'lom | o'tgan yil bu yil<br><br><br>semiz ozg'in | |

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| baxtli bo'lmoq | - (to) be hapy | o'zgin | - thin |
| kuchsiz | - weak | badantarbiya | - physical training |
| charchamoq | - (to) be tired | sovun | - soap |
| baquvvat | - strong, healthy | sog'lom | - healthy |
| sinab ko'ring | - (to) experience, (to) try | parhez | - diet |



www.ziyouz.com kutubxonasi



"Lola" shampunidan foydalanmasdan oldin sochim juda kir edi. Hozir esa juda toza.



1. "Lola" tish pastasidan foydalanmasdan oldin tishlarim sap-sariq edi. Hozir juda oppoq.



2. "Lola" bo'yog'idan foydalanmasdan oldin uyimiz juda ko'rimsiz edi. Hozir juda chiroyli.



3. "Lola" mebeli
uyimiz
(bo'sh - shinam)



4. "Lola" it ozuqasi
olapar
(kichkina - katta)



5. "Lola" oyna tozalagichi
dereza
(iflos - toza)



6. "Lola" sovun kukuni
kafellar
(xira - yaltiroq)

"Lola" ..................................................
..........................................................
..........................................................
..........................................................
..........................................................

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| foydalanmasdan oldin | - before using | sap-sariq | -bright yellow |
| oppoq | - white | ko'rimsiz | - untidy |
| bo'sh | - empty | shinam | - comfortable |
| xira | - dull | yaltiroq | - bright |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | |
|---|---|
| ishchan | edim |
| semiz | eding |
| kasal | edi |
| uyda | edik |
| ofisda | edingiz |
| bog'da | edilar |

| | |
|---|---|
| ishchan | emas edim |
| semiz | emas eding |
| kasal | emas edi |
| uyda | emas edik |
| ofisda | emas edingiz |
| bog'da | emas edilar |




A. Kecha kechqurun kinodamiding?
B. Yo'q, kinoda emas edim. Uyda edim.



1. Oysha Chimyonda edimi?



2. Ali bilan Ra'no bugun ertalab uyda edilarmi?



3. Barno/xafa



4. Otang/sartarosh



5. Ular/plyaj



6. Chaqaloq/tinch



7. Anvar/samolyot kech qolmoq



8. Nodira/avtobus ulgurmoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| | o'qidim | | o'qimadim |
| | o'qiding | | o'qimading |
| Kitob | o'qidi | Kitob | o'qimadi |
| | o'qidik | | o'qimadik |
| | o'qidingiz | | o'qimadingiz |
| | o'qidilar | | o'qimadilar |



A. Kecha kechqurun uxladingmi?
B. Ha, uxladim. Juda charchagan edim?



A. Aziz kecha kechqurun  yaxshi uxladimi?
B. Yo'q, uxlamadi. Charchagan emas edi.



1. A. Abror bugun nonushta qildimi?
   B. Ha, ................................ . Och edi.



2. A. Lola ................................ ?
   B. Yo'q, ................................ .



3. A. Barno kecha do'xtirga bordimi?
   B. Ha, ............................ . Kasal edi.



4. A. Komil kecha tish do'xtiriga bordimi?
   B. Yo'q, ..................................... .



5. A. Anvar ertalab sut ichdimi?
   B. Ha, ........................ . Och edi.



6. A. Zilola ertalab choy ichdimi?
   B. Yo'q, ..................................... .



7. A. Humoyun poezdga ulgurmadimi?
   B. Ha, ........................ . Kech qoldi.



8. A. Maqsud poezdga ulgurmadimi?
   B. Yo'q, .......... . Vaqtida keldi.



www.ziyouz.com kutubxonasi

## O'QISH



### LAYLO

Laylo Angliyada tug'ildi. U yerda kichik bir shaharda o'sdi. Olti yoshida maktabga bordi. Faqat liseyga bora olmadi. Chunki oilasi kambag'al edi. O'n besh yoshida ishga kirdi. Bir poyabzal fabrikasida ishladi.

Laylo o'n yetti yoshga kirganda uning oilasi O'zbekistonga ko'chib keldi. Oldin Buxoroda, keyin Toshkentda yashadilar.

Laylo Angliyadan ketganidan bir oz xafa edi. Chunki u yerda do'stlari bor edi. Ammo endi u o'z vatanida edi. Laylo oldin o'zbekchani yaxshi gapira olmadi. Kunduzlari bir fabrikada ishladi. Kechalari esa o'zbek tilini o'rgandi.

Laylo o'z ustida ko'p ishladi. Hozir u o'zbek tilida juda yaxshi gaplashadi. Kechalari kompyuterni o'rganmoqda. Laylo kotiba bo'lmoqchi. Endi Layloga O'zbekiston juda yo'qdi. Chunki u hozir baxtli va do'stlari ko'p. Laylo kelajakka umid bilan qaraydi. Senga baxt tilayman, Laylo!

## NAZORAT

1. Laylo qayerda tug'ildi?
2. U o'qidimi?
3. Laylo necha yoshidan ishlay boshladi?
4. Uning oilasi qachon ko'chdi?
5. Oldin qayerga ko'chdilar?
6. Keyin qayerda yashadilar?
7. Laylo O'zbekistonda baxtiyor bo'ldimi?
8. Sizning-cha, Laylo qanday qiz?

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| tug'ilmoq | - (to) be born | o'z ustida | - on his own, by himeslf |
| poyabzal | - shoe | kotiba | - secretary |
| ko'chib kelmoq | - (to) move from | kelajak | - future |
| yashamoq | - to live | baxt tilayman | - I wish you happiness |



www.ziyouz.com kutubxonasi

## SIZ UCHUN

1. Siz qayerda tug'ildiniz?
2. Qayerda katta bo'ldingiz?
3. O'qishni qayerda boshladingiz?
4. Qayerda o'qishni bittirdingiz?
5. Qaysi ishda ishladingiz?
6. Boshqa bir shaharga ko'chdingizmi? Nima uchun?
7. O'z hayotingizdan mamnunmisiz?

### YOSHLIK CHOG'LARI ...



1. Ko'rinishingiz qanday edi? Uzunmi? Ozg'inmi? Yoqimlimi? Chiroylimi? Injiqmi?

2. Do'stlaringiz ko'pmidi? Ular bilan nimalar qilardingiz? Qanday o'yinlar o'ynar edingiz?

3. Maktabingizni yaxshi ko'rar edingizmi? Yaxshi ko'rgan o'qituv-chingiz kim edi? Nima uchun? Qaysi darsni yoqtirar edingiz? Nima sababdan?

4. Bo'sh vaqtingizda nimalar qilardingiz? Koleksiyalaringiz bormi? Qaysi sport turlarini o'ynar edingiz?

5. Eng sevgan qahramoningiz kim?

6. Necha yo'shdan gapira boshlagansiz?

7. Birinchi aytgan so'zingiz qaysi?

8. Necha yoshdan yura boshladingiz?

9. Necha yoshda o'qishga bordingiz?

10. Birinchi do'stingizni eslay olasizmi?

### SIZ HAM UCHTA SAVOL SO'RANG ...

1. ..........................................................?
2. ..........................................................?
3. ..........................................................?



www.ziyouz.com kutubxonasi

# DIALOG



A. Bu hafta oxirida tort pishirasizmi?
B. Yo'q, pishirmayman. O'tgan hafta pishirgan edim. Tez-tez tort pishirishni yoqtirmayman.

SIZ HAM SHUNDAY GAP TUZING.




1. A. Bu hafta oxirida tarixga tayorlanasizmi?
   B. ........................................ .



2. televizor tomosha qilmoq



3. qahva ichmoq



4. kiyim sotib olmoq

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| sho'x | - noughty | yoqimli | - nice, friendly |
| injiq | - spoiled | nima | - what |
| oynamoq | - (to) play | yoqtirmoq | - like |
| hafta oxirida | - at the weekend | kiyim | - clothes |



www.ziyouz.com kutubxonasi



5. tort pishirmoq
Sobirovlar oilasi



6. futbol o'ynamoq
Aziz



7. ko'chat o'tqazmoq
Maqsud aka



8. uyni tozalamoq
Safiya opa



9. chang'i uchmoq
ular




10. Qo'qonga ketmoq
Fotima opa



11. Buxoroga bormoq
Roziq aka va Lola opa



12. plyajga bormoq
ular

A. Bu hafta oxirida uyingizga ketasizmi?
B. ............................................................... .



www.ziyouz.com kutubxonasi

# NIMA OLASIZ?

Do'stimga tug'ilgan kunida sovg'a beraman.
Do'stimning tug'ilgan kuniga fotoapparat olaman.



A. Onangning tug'ilgan kuniga nima olasan?

B. Bilmayman. Faqat sirg'a ololmayman. Chunki o'tgan yil ularga sirg'a olgan edim.

A. Gul olsang bolmaydimi?

B. Yo'q, gul ham olmayman. Chunki yaqinda gul berdim.

A. Yaxshi. Unda nima olasan?

B. Bilmadim. Yaxshilab o'ylab ko'ray-chi.

A. Do'stingizga ..........................................?
B. Bilmadim, ..............................................?
A. ........................................ bo'lmaydimi?
B. Yo'q, ...................................................... .
A. Yaxshi. Unda ........................................?
B. Bilmadim, .............................................. .



1. amaki



2. amma



3. tog'a



4. xola



5. opa

6. ................



www.ziyouz.com kutubxonasi

# TUG'ILGAN KUN







Lobar nima uchun Hamid akadan xafa?

1. ..............................................................
2. ..............................................................
3. ..............................................................
4. ..............................................................

- Tug'ilgan kuningiz | qachon? / qaysi kuni?



- Tug'ilgan kunim o'n sakkizinchi oktyabrda.
- Uchinchi martda tug'ilganman.

**Bu yilgi tug'ilgin kuningizda...**

- Nima qildingiz?
- Sovg'a oldingizmi?
- Nimalar oldingiz?
- Oilangiz va do'stlaringiz tug'ilgan kuningiz bilan tabrikladilarmi?
- Ular biron ajoyib sovg'a qildilarmi?

**Lug'at**

bilasizmi? - Do you know?
tabriklamoq - (to) congratulate
unutmoq - (to) forget



www.ziyouz.com kutubxonasi

# O'QISH



## YAXSHI DO'ST

Samad va Go'zal juda inoq do'stlardir. Ular birga katta bo'ldilar. Maktabda ham birga o'qidilar. Hozir Samad Toshkentda yashaydi. Go'zal esa Farg'onada yashaydi. Bir-birlaridan uzoqda bo'lsalar ham, hozir ham yaqin do'stlar.

Ular bir-birlariga tez-tez xat yozib turadilar. Samad xatlarida Toshkent haqida yozsa, Go'zal Farg'onani tasvirlaydi. Ular tug'ilgan kunlarini hech esdan chiqarmaydilar. Samad o'tgan yili Go'zalga sirg'a sovg'a qildi. Go'zal esa Samadga ko'ylak oldi. Ular doim bir-birlariga yordam beradilar. O'tgan yil Go'zal kasalxonada yotganida Samad undan xabar oldi. Go'zal ham unga maslahatlar berib ko'nglinini ko'taradi.

Samad va Go'zalning do'stliklari abadiy. Hozir ham ular juda yaxshi do'stdirlar.



## DO'STLARIMIZ

Nodir va Nargiza bizning yaxshi do'stlarimiz. Biz ko'p yillar birga ishladik. Birga sayohatlarga bordik. Bolalarimiz ham birga o'sib ulg'ayishdi. Nodir va Nargiza hozir Buxoroda yashashadi. Biz esa Toshkentda turamiz. Bir-birimizdan uzoqda yashasak ham hozirgacha yaqin aloqadamiz.

Bir-birimizga tez-tez xat yozib turamiz. Biz ularga o'zimiz turgan shaharning yangiliklaridan xabar beramiz. Ular esa Buxorodagi voqealardan yozib turishadi. Biz to'y bo'lgan kunlarimizni hech unutmaymiz. O'tgan yil ularga katta bir guldasta yubordik. Ular bizga bir kartina yuborishgan.

Bizlar bir-birimizga tez-tez yordam berib turamiz. O'tgan yil mashina olishganda biz pul berib turdik. Ular ham biz yangi uy olganda yordam berishdi.

Bizlar bir-birlarimizni juda sevamiz. Hamma vaqt sadoqatli do'st bo'ldik.

Hozir ham juda inoq do'stmiz.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| uzoqda | - far away | sirg'a | - earrings |
| yaqin do'st | - close friend | sovg'a | - present, gift |
| tasvirlamoq | - (to) describe | ko'nglini ko'tarmoq | - to make happy |
| esdan chiqarmoq | - (to) forget | o'sib ulg'aymoq | - (to) grow up |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# NAZORAT

1. Samad bilan Go'zal qanday do'stlardir?
2. Samad bilan Go'zal qayerda yashaydilar?
3. Ular bolalikda qayerda turishgan?
4. Ular hozir birga yashaydilarmi?
5. Ular qanday xabarlashadilar?
6. Ular bir-birlarining tug'ilgan kunlarini eslaydilarmi?
7. Ular bir-birlariga qanday sovg'alar oladilar?
8. Samad bilan Go'zal bir-birlariga yordam beradilarmi?
9. Samad Go'zalga yordam berdimi?
10. Go'zal Samadga yordam berdimi?

## TO'G'RIMI, XATOMI?

1. Nodir va Nargiza hozir Samarqandda yashaydilar.
2. Biz ajralishganimizdan keyin do'stligimiz tugadi.
3. Biz hozir ham Toshkentda turamiz.
4. Bir-birimizga kamdan-kam xat yozamiz.
5. Xatlarimizda yashayotgan shaharlarimizdagi voqealar haqida yozamiz.
6. Bir-birimizning to'y kunlarimizni hech unutmaymiz.
7. To'y bo'lgan kunlarimizda bir-birimizni ziyorat qilamiz.
8. Bir-birimizga hech yordam bermaymiz.
9. Bir-birimizni juda sevamiz.
10. Biz ilgarigi kabi hozir ham juda yaxshi do'stmiz.

## SIZ UCHUN



### YAXSHI BIR DO'ST

Hozir sizdan uzoqda bo'lgan yaxshi bir do'stingiz bormi?
U bilan qanday xabarlashasiz?
Nimalar haqida gaplashasizlar?
Unga biror marta sovg'a yubordingizmi? Nima?
Unga biror marta yordam berdingizmi? Qanday?

### Lug'at

| | | | |
|---|---|---|---|
| yordam bermoq | - (to) help | ajralmoq | - (to) port, (to) break up |
| bir-birimizga | - to each other, one another | ziyorat qilmoq | - to visit |
| xabarlashmoq | - (to) keep in touch | biror marta | - once |



www.ziyouz.com kutubxonasi



**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| pomidor | - tomato | guruch | - rice |
| tuxum | - egg | bug'doy | - wheat |
| banan | - banana | no'xat | - chickpea |
| pishloq | - cheese | nok | - pear |
| sut | - milk | uzum | - grape |
| non | - bread | qovun | - melon |
| shakar | - sugar | tuz | - salt |
| qalampir | - pepper | sari g'yog' | - butter |
| piyoz | - onion | zaytun | - olive |
| sarimsoq | - garlic | qatiq | - yogurt |
| qahva | - coffee | ............ | - |
| choy | - tea | ............ | - |
| asal | - honey | .............. | - |
| murabbo | - jam | ............. | - |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# KELING, BIRGA PISHIRAMIZ.









1. A. Keling, kechki ovqatga salat tayyorlaymiz.
   B. Afsus. ................................. .



2. A. Keling, amlet pishiramiz.

   B. Afsus. .............................. .



3. A. Keling, limon sharbati qilamiz.
   B. Afsus. ...................................... .



4. A. Kechki ovqatga pirog pishiramiz.
   B. ...................................................... .




5. A. Keling, tort pishiramiz.

   B. ...................................... .



6. A. Keling, apelsin sharbati tayyorlaymiz.
   B. Afsus. ........................... .




7. A. Keling, bugun palov pishiramiz.
   B. ..................................................... .




8. A. Keling, gamburger qilamiz.
   B. Afsus. ................................. .



www.ziyouz.com kutubxonasi

# QANCHA?



A. Qancha sut xohlaysiz?
B. Ko'p emas. Ozroq.
A. Mana, marhamat.
B. Rahmat.



A. Qancha qand istaysiz?
B. Ko'p emas. Bir-ikki dona.
A. Marhamat, oling.
B. Katta rahmat.



1. choy



2. qovurilgan kartoshka



3. muzqaymoq



4. palov



5. shashlik

6. ..........................

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| tayyorlamoq | - (to) prepare | ko'p emas | - not much |
| qancha istaysiz? | - how much do you want | muzqaymoq | - ice cream |
| qovurilgan | - fried, roasted | dona | - piece |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# YANA XOHLAYSIZMI? YANA OZROQ XOHLAYSIZMI?



A. ............................ yoqdimi?
B. Juda shirin /lazzatli/, mazali.
A. Sizga yoqqanidan xursandman. Yana xohlaysizmi?
B. Ha, mayli. Faqat ozroq. Do'xtirim oz yeng degan.

**Siz ham namunadagidek gaplar tuzing.**



1. kartoshka



2. keks



3. muzqaymoq



4. pecheni

5. ?



www.ziyouz.com kutubxonasi




### XARID QILISH

Hasan supermarketda. U juda hayron. Juda oz narsa olishiga qaramay, 4000 so'm to'ladi.

Hasan faqat bir necha apelsin, olma va banan oldi. Bir oz qahva bilan sut, muz-qaymoq va bir nechta tuxum sotib oldi.

Bundan tashqari yarim kilo piyoz, sabzi, biroz guruch, pishloq, bir necha dona limon oldi. Baliq olmadi. Uzum olmadi. Go'sht olmadi.

Hasan juda oz narsa olishiga qaramay, juda ko'p pul to'ladi. Shu sababdan u juda hayron.




1. A - Hasan qancha apelsin oldi?
   B - Faqat bir necha dona.

2. A - Qancha sut oldi?
   B - Faqat bir litr oldi.

3. A - ................................ ?
   B - ................................ .

4. A - ................................ ?
   B - ................................ .

5. A - ................................ ?
   B - ................................ .

Keyingi paytda do'kondan nimalar sotib oldingiz?

Qancha oldingiz?

Necha so'm to'ladingiz?

**Lug'at**

hayron - (to) be surprised; (to) be astonished
olishiga qaramay - inspite of of beining, in spite of the fact that, although, though
pul to'lamoq - (to) pay money
bir necha - a few



www.ziyouz.com kutubxonasi

# ... ISHINI ... ISHIGA QARAMAY ( ... SA HAM) ...MAYDI.



Ahror shokoladni juda yaxshi ko'radi. Har doim shokolad yeydi. Do'stlari Ahrorga ko'p shokolad yeganini aytadilar, ammo u ishonmaydi.



Lobar qahvani juda sevadi. Har doim kahva ichadi. Do'xtir qahvani oz ichishinini aytishiga qaramay, Lobar ko'p qahva ichadi.



Nazira sabzavotlarni yoqtirmaydi. Hech sabzavot yemaydi. Onasi Naziraga sabzavot yeyishni aytsa ham, u yemaydi.



Murod qatiqni yomon ko'radi. Hech qatiq ichmaydi. Singlisi Murodga qatiq ichishi lozimligini aytsa ham, u ichmaydi.

## SIZ UCHUN





. Ovqatlar lazzatlimi?

. Ulardan tez-tez yeb turasizmi?

. Ular sizga foydalimi yoki zararlimi?

. Sizning-cha, qaysi ovqatlar bema'za?

. Ularni tez-tez iste'mol qilasizmi?

. Sizning-cha, sog'ligingiz uchun foydalimi yoki zararli?

**Lug'at**

| | |
|---|---|
| har doim | - always |
| aytishiga qaramay | - in spite of saying that, hil saying that |
| lazzatli | - delicioug |
| foydali | - useful |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# SIZGA BIROR NARSA KERAKMI?






A. Do'kondan biror narsa kerakmi?
B. Ha, uchta non kerak.
A. Uchta nonmi?
B. Ha, uchta non.
A. Boshqa biror narsa kerakmi?
B. Yo'q, faqat ucnta non kerak.




1. guruch




2. murabbo




3. mineral suv



4. banan




5. konserva



6. non




7. un

8.




**A. Sizga nima kerak?**
**B. .............................. .**



www.ziyouz.com kutubxonasi

# 1 KILO KARAM NECHA SO'M ( QANCHA) TURADI?



A. 1 kilo karam necha so'm?
B. O'n so'm.
A. O'n so'mmi? Juda qimmat.
B. To'g'ri. Bu kunlarda karam qimmat bo'ladi.



A. 1 kilo olma qancha turadi?
B. O'ttiz so'm.
A. O'ttiz so'm juda qimmat-ku?!
B. Shunday. Bu paytda olma qimmat bo'ladi.




1. sarig'  yo'g'



2. sabzi




3. soda



4. piyoz



5. pishloq




6. sut



7. bulka non



8. limon

9.



www.ziyouz.com kutubxonasi






Umida bugun ugda kech keldi. Qorni och edi. Muzlatgichni ochib yeyishga hech narsa topmadi. Keyin o'tirib, xarid qiladigan narsalarining ro'yxatini tayyorladi. Bir kilo pishloq, yog' va shakar kerak edi. Yana bir litr sut va bir shisha mineral suvga ehtiyoji bor edi.



Umida uydan chiqib, do'konga ketdi. Do'konda pishloq bilan sut yo'q edi. Umida bir oz xafa bo'ldi. Shunchalik charchadiku, ishtahasi ham yo'qoldi. Uyga keldi. Charchab divanga o'tirdi va uxlab qoldi.

**Umida do'konda:**

A. - Kechirasiz, sizda pishloq bormi?
B. - Afsuski, yo'q. Bugun tugab qoldi.
A. - Hecham qolmadimi?
B. - Ha, qolmadi.

A. -Kechirasiz, sut bormi?
B. - Afsus, sut ham yo'q.
A. - Nima, tugadimi?
B. - Ming afsus. Tugadi. Xafa bo'lmaysiz.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| och | - hungry | xarid qilmoq | - (to) buy |
| ro'yxat | - list | tugamoq | - (to) end, (to) finish |
| ehtiyoj | - need | ıshtahasi yo'qolmoq | - (to) lose appetite |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# NIMANI TAVSIYA QILASIZ?



A. Sharbatlardan qaysisini xohlaysiz?
B. Bilmadim. Siz nimani tavsiya qilasiz?
A. O'rik sharbatini tavsiya qilaman. U hammaga yoqadi.
B. Yaxshi, o'rik sharbati keltiring.



A. Nonushtaga nima xohlaysiz?
B. Menga farqi yo'q. Siz nimani tavsiya qilasiz?
A. Qaynatilgan tuxum yaxshi. Bizga kirganlar doim uni so'rashadi.
B. Mayli, qaynatilgan tuxum bering.

**Nima** | **istaysiz?** / **xohlaysiz?**



1. olmali tort
shirinliklardan



2. mastava
tushlik ovqati



3. qahva
ichimliklardan



4. tovuq sho'rvasi
kechki ovqat



5. koka kola
ichimliklardan



6. muzqaymoq
ovqatdan keyin



7. sut
nonushta



8. qulupnay
mevalardan

9. 

A. - Ichimliklardan nima xohlaysiz?
(Nima ichasiz?)
B. - Iltimos, choy bering.

A. .............................................. ?
B. .............................................. .



www.ziyouz.com kutubxonasi

### BIR RESTORANDA




Kecha Ahmad bilan Ozoda nikoh to'ylarining o'n besh yilligini nishonlashdi. Ular kechqurun bir restoranga borishdi.

Bu restoran ular uchun muqaddas joy edi. Chunki o'n to'rt yil avval nikoh to'ylarining birinchi yilligida shu restoranda o'tirishgan edi.

Ahmad va Ozoda hayajon bilan bir stol atrofiga o'tirdilar. Avval choy ichdilar. Bu orada ovqatga buyurtma berdilar. Ozoda mastava buyurdi. Ahmad esa ishtaha ochish uchun pomidor suvi ichdi. Bir ozdan keyin Ozoda qovurilgan jo'ja, Ahmad esa baliq buyurdi. Ovqatdan so'ng Ozoda keks yedi, Ahmad esa fanta ichdi. Ular bu ovqatlarni ishtaha bilan yedilar. Mastava juda mazali edi. Pomidor suvi shirin edi. Tovuq juda lazzatli edi. Baliq xushbo'y va totli edi. Keks ajoyib edi. Fanta ichimligi rohatijon edi.

Ahmad va Ozoda mazza qilib ovqatlandilar. Ajoyib suhbat qurdilar. Bugun ular uchun antiqa bir kun edi.

### NAZORAT

1. Ular qayerga borishdi?
2. Avval ular nima ichdilar?
3. Ozoda avval nima yedi?
4. Ahmad-chi?
5. Tovuq qanday edi?
6. Baliq-chi?
7. Bugun ular uchun qanday kun edi?

A. Mastava sizga yoqdimi?
B. Mazali ekan. Juda yoqdi.
A. Sizga yoqqanidan xursandman.

**Shunga o'xshash dialog tuzing.**

**O'zingiz borgan restoran haqida gapirib bering.**




Qayerga bordingiz? Nimalar buyurdingiz?
Ovqatlari qanday edi? Qancha to'ladingiz?
Ko'nglingiz to'ldimi?

**Lug'at**

nishonlamoq - to celebrate
muqaddas - sacred, holy
buyurtma - order
buyurmoq - (to) order
ajoyib - wonderful



www.ziyouz.com kutubxonasi

# QACHON TAYYOR BO'LASIZ?

| kel+a+man | ishla+y+man |
|---|---|
| kelaman - kelamanmi? | ishlayman - ıshlaymanmi? |
| kelasan - kelasanmi? | ishlaysan - ishlaysanmi? |
| keladi - keladimi? | ishlaydi - ishlaydimi? |
| kelamiz - kelamizmi? | ishlaymiz - ishlaymizmi? |
| kelasiz - kelasizmi? | ishlaysiz - ishlaysizmi? |
| keladilar - keladilarmi? | ishlaydilar - ishlaydilarmi? |



A. Yoezd qachon keladi?
Vaqtli keladimi?
B. Ha, vaqtli keladi. 5 daqiqada kelib qoladi.



1. A. Sho'rva qachon tayyor bo'ladi?
Ertaroq pishadimi?
B. ................................................ .



2. A. Ozoda opa qachon qaytadilar?
Ertaroq qaytadilarmi?
B. ................................................ .



3. Do'xtir qachon keladi?
Ertaroq keladimi?



4. A. Qachon tayyor bo'lasiz?
Vaqtliroq tayyorlanasizmi?



5. pomidor
yetilmoq




6. konsert
boshlanmoq



7. otangiz
qaytmoq



8. siz
kelmoq



9. Tolib
tuzalmoq



10. Sobir
qamoqdan chiqmoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

# NIMA DEYSAN, ERTAGA YOMG'IR YOG'ADIMI?

- kelmayman
- kelmaysan
- kelmaydi
- kelmaymiz
- kelmaysiz
- kelmaydilar

- ishlamayman
- ishlamaysan
- ishlamaydi
- ishlamaymiz
- ishlamaysiz
- ishlamaydilar




**Siz nima deysiz ...**

1.




2.




3.




4.




5.




6.




7.




8.






www.ziyouz.com kutubxonasi



## KEL, BAHOR

Bahorni juda sog'indim. Qish jonimga tegdi. Qordan ham zerikdim. Sovuq havodan bezdim. Qishki kiyimlarimni kiygim kelmaydi. Bahorda sovuq havodan, uyda o'tirishdan, qordan qutulaman. Hovlida do'stlarim bilan o'ynayman. Velosiped haydayman.

Gullar ochiladi. Otam yangi ko'chatlar o'tqazadi. Shanba va yakshanba televizor ko'rmaymiz. Sayrga chiqamiz. Oromgohda dam olamiz.

Bahorning kelishini ortiq kutolmayman. Iltimos, tezroq kel bahor! Tezroq kela qol!

### TO'G'RIMI YOKI XATOMI?

1. Hozir kuz.
2. Bola qishki kiyimlarini yoqtiradi.
3. Bola hozir og'ir kasal.
4. Bola hovlida koptok o'ynayapti.
5. Bahor bolaning joniga tegdi.
6. Bola yozni juda sog'ingan.
7. Bolaga qish yoqadi.




- Eng yoqtirgan faslingiz qaysi?
- Eng yoqtirgan faslingizda nimalar qilasiz.

### Lug'at

| | | | |
|---|---|---|---|
| sog'inmoq | - (to) miss | zerikmoq | - (to) be bored |
| haydamoq | - (to) ride (a bike, beyelc) drive a car | ochilmoq | - (to) bloom |
| joniga tegmoq | - (to) be sick of smth | sayrga chiqmoq | - to go for a picnic |
| sevinmoq | - (to) be happy | fasl | - season |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | |
|---|---|---|
| | | tozalarman. |
| | | tozalarsan. |
| | | tozalar. |
| Balki | bugun | tozalarmiz. |
| | | tozalarsiz. |
| | | tozalashar. |
| | | tozalaydilar. |



A. Uyingizni qachon tozalaysiz?
B. Bilmadim. Balki bugun tozalarman yoki shanba kuni tozalayman. O'ylab ko'rmadim.



A. Ta'tilda qayerga borasiz?
B. Bilmadik. Balki Turkiyaga borarmiz yoki Angliyaga boramiz. Hali bir qarorga kelmadik.



1. Bu kecha nima pishirasiz?



2. Zulfiya opa oshxonani qaysi rangga bo'yaydi?



3. Ular bolalarining ismini nima qo'yadilar?



4. Qachon turmush qurasizlar?



5. Ukangizning tug'ilgan kuniga nima olasiz?



6. Bu oqshom nima qilasiz?



7. Ertaga o'qishga nimada borasiz?



8. Itingizga qanday nom qo'yasiz?



9. Katta bo'lganingizda nima olasiz?

**A. ERTAGA NIMA QILASIZ?**
**B. ..................................**.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# EHTIYOT BO'LING! QO'LINGIZ SHIKASTLANISHI MUMKIN.



A. - Ehtiyot bo'l! Kaskangni kiy.
B. - Tushunmadim, nima dedingiz?
A. - Kaskangni kiy. Boshing shikastlanishi mumkin.
B. - Ogohlantirganingiz uchun rahmat.



1. Yer, sirpanchiq,



2. Sigaret chekmoq
   Yong'in chiqmoq



3. Dastgohga tegmoq
   Qo'lini kesmoq

4.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| ehtiyot bo'l | - be careful!, be ware! | shikastlanmoq | - (to) hurt |
| ogohlantirmoq | - (to) warn | sirpanchiq | - slippery |
| qo'rqmoq | - afraid, to be scared | dastgoh | - tool |
| yiqilmoq | - (to) fall down | o'ylab ko'rmoq | - (to) think about |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# CHO'KIB KETAMAN DEB QO'RQAMAN. CHO'KAMAN



A. Men bilan cho'milishga borasanmi?
B. Yo'q, bormayman.
A. Nega bormaysan?
B. Cho'kib ketaman deb qo'rqaman.
A. Qo'rqma, cho'kmaysan.
B. Aminmisan?
A. ........................ .
B. Bo'pti, sen bilan cho'milishga boraman.



1. chang'ida uchmoq
oyog'i lat yemoq



2. restoranga kirmoq
tobi qochmoq



3. plyajga bormoq
oftob urmoq



4. diskotekaga bormoq
oyog'ini bosib olmoq



5. boqqa bormoq
shamollab qolmoq



6. bazmga bormoq
vaqtni bekor o'tkazmoq



7. qayiqda suzmoq
ko'ngli buzilmoq



8. mashinada kezmoq
daraxtga urilmoq



9. kinoteatrga kirmoq
uxlab qolmoq



www.ziyouz.com kutubxonasi

# DO'XTIRGA BORGANING MA'QUL, SHEKILLI



Ahmad bugun ishga bormadi. Ertaga ham bormaslig'i mumkin. Buning o'rniga do'xtirga boradi. Haqiqatan ham, u o'zini yomon his etyapti. Ahmad gripp kasaliga chalinganman deb o'ylayapti. U do'xtirga borsa o'zi uchun yaxshi bo'lishini tushunyapti. Do'xtirga borgan ma'qul, shekilli.



Malika opa bugun ofisga bormadi. Ertaga ham bora olmaydi. Buning o'rniga do'xtirga boradi. U o'zini juda behol his qilyapti. Har kuni ko'ngli ayniydi. Malika opa o'zini homiladorman deb o'ylayapti, faqat bunga to'la ishonmayapti. U do'xtirga borishni o'zi uchun yaxshi deb o'ylaydi. Do'xtirga borgan ma'qul, shekilli.



Anvar bilan Dilbar bugun maktabga bormadilar. Ular ertaga ham borisholmaydi. Buning o'rniga yotib dam olishlari mumkin. Ikkalasining ham yuzida qizil toshmalar paydo bo'lgan. Onasi va otasi ularni qizamiq bo'lgan deb o'ylashayapti. Faqat bunga ishonishmayapti. Ular Anvar va Dilbar uchun yotib dam olish yaxshi bo'ladi deb o'ylayaptilar. Yotib dam olgan ma'qul, shekilli.

**Siz ham shunday gaplar tuzing.**

A. Assalomu alaykum, men Ahmadman. Menimcha, bugun ishga borolmayman. Ishonmaymanku, ammo grippga chalindim, shekilli.
B. Shundaymi? Chatoq bo'libdi. Do'xtirga borasanmi? (Do'xtirga borish niyating bormi?)
A. Hali bir qarorga kelmadim. Borishim ham, bormasligim ham mumkin.
B. Mayli, ertaga ishga kelasanmi?
A. Uni ham bilmadim. Borishim ham, bormasligim ham mumkin.
B. O'zing bilasan. O'zingga qara. Tez tuzalib ketasan deb umid qilaman.
A. Katta rahmat. Harakat qilaman.

**Lugat**

| | | | |
|---|---|---|---|
| buning o'rniga | - instead of this | ishonmoq | - (to) believe |
| his etmoq | - (to) feel | chalinmoq | - (to) feel ill |
| borgan ma'qul | - It's better if ... | mumkin | - may, can |



www.ziyouz.com kutubxonasi



A. - Allo, maktab direktori kerak edi. Men Umar Rasulovning onasiman.
B. - Allo, eshitaman. Men maktab direktori Inoyat Rahmonovman.
A. - Sizni bezovta qilganim uchun uzr. Umar bugun maktabga borolmaydi.
B. - Nega kelmaydi, opa?

A. - Umar kasal bo'lib qoldi. Shuning uchun borolmaydi.
B. - Afsus, yaxshi bo'lmabdi. Mayli, xafa bo'lmang. Sog'ayib ketadi.
A. - Rahmat, salomat bo'ling.
B. - Sizga ham rahmat. Tezroq tuzalib ketsin.



Kecha maktabga yoki ishga bormadingiz. Direktoringizga yoki boshlig'ingizga xat yozing. Nega bormaganingizni tushuntiring.

| |
|---|
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |
| ........................................................................................................ |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# YANGI UYIM KENGROQ

keng - kengroq
tor - torroq
chiroyli - chiroyliroq

kuchli - kuchliroq
yangi - yangiroq
eski - eskiroq




A. Menimcha, yangi uyim sizga yoqdi.
B. Lekin eski uyingiz ham menga yoqardi. U juda keng edi.
A. To'gri. Ammo yangi uyim yana ham kengroq.



1. velosiped
   tez



2. muzlatgich
   katta



3. it
   sodiq



4. uy
   katta



5. dam olish xonasi
   shinam



6. mashina
   ishonchli



7. raketka
   qulay



8. lagan
   keng

9. parik
   chiroyli

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| kengroq | - bigger/wider | yoqmoq | - (to) like |
| sodiq | - faith ful | qulay | - handy |
| ıshonchli | - trustable | qiziq | - interesting |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# YANGI O'RINDIG'IM QULAYROQ

sovuq - sovuqroq
katta - kattaroq
qulay - qulayroq

qiziq - qiziqroq
qiyin - qiyinroq
ozg'in - ozg'inroq



A. Menimcha, yangi o'rindiq sizga yoqdi.
B. Ha, ammo eskisi chiroyli edi. U juda qulay edi.
A. Tog'ri. Lekin yangi o'rindig'im yana qulayroq.



1. yangi o'qituvchi
sukko



2. yangi boshliq
yoqimli



3. yangi uy
chiroyli



4. yuvish jihozi
keng



5. divan
zamonaviy



6. o'zbek tili o'qituvchisi
samimiy



7. kasbdosh
kulgili



8. rais
ishbilarmon



9. kompyuter
kichik



10. sovitgich
yaxshi



11. yangi keks
shirin

12.



www.ziyouz.com kutubxonasi







## OQTEPA MAHALLASI

Ikromovlar oilasi ko'p yillar Oqtepa mahallasida yashaydi. Oqtepadagi ko'chalar juda keng edi. Bog'lar va yo'llar juda toza edi. Avtobuslar tartib bilan yurardi. Maktablar juda chiroyli edi.

Ammo Oqtepa hozir o'zgardi. Shu kunlarda Oqtepa unday toza emas. Bog'lar avvalgiday toza emas. Avtobuslar oldingiday tartib bilan yurmaydi. Maktablar oldingiday chiroyli emas.

Shuning uchun Ikromovlar oilasi Oqtepadan Yunusobodga ko'chdilar. Yunusobodda ko'chalar kengroq, bog'lar tozaroq, maktablar yaxshiroq, Ikromovlar ilgari Oqtepada juda baxtli edilar, hozir Yunusobodda yanada baxtliroqlar. Faqat Oqtepadagi qo'shnilar Yunusoboddagi qo'shnilardan samimiyroq edilar.

Ikromovlar ko'chib to'g'ri qildikmi yoki noto'g'rimi deb o'ylashyapti. Siz nima deysiz?

## TOG'RIMI YOKI XATO?

1. Oqtepadagi ko'chalar Yunusoboddagi ko'chalardan kengroq.
2. Oqtepadagi bog'lar Yunusoboddagi bog'lardan tozaroq.
3. Oqtepadagi qo'shnilar Yunusoboddagi qo'shnilardan samimiyroq.
4. Oqtepadagi maktablar Yunusoboddagi maktablardan yaxshiroq.



**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| mahalla | - neighbourhood | o'zgarmoq | - (to) change |
| oldingiday | - as before, as former times | qo'shni | - neig hbour |
| samimiy | - sincere cordnial | ko'chmoq | - (to) move |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# VELOSIPED MOTOSIKLGA QARAGANDA XAVFSIZROQ

| | |
|---|---|
| o'qimoqchiman | o'qimoqchimanmi? |
| o'qimoqchisan | o'qimoqchisanmi? |
| o'qimoqchi | o'qimoqchimi? |
| o'qimoqchimiz | o'qimoqchimizmi? |
| o'qimoqchisiz | o'qimoqchisizmi? |
| o'qimoqchilar | o'qimoqchilarmi? |

Men



A. Velosiped olmoqchimanmi yoki motosikmi?
B. Menimcha, velosiped olmoqchisan.
A. Nima uchun?
B. Velosiped motosiklga qaraganda xavfsizroq.




A. Olmoncha o'qimoqchimi yoki inglizchami?
B. Menimcha, inglizcha o'qimoqchi.
A. Nimaga?
B. Inglizcha olmonchaga qaraganda foydaliroq.




1. olmoq - sodiq




2. olmoq - arzon




3. tanlamoq - mard




4. sayr qilmoq - aqlli




5. sotib olmoq - arson

A. Oq-qora olamizmi yoki ranglimi?
B. .......................................................
A. .......................................................
B. .......................................................



www.ziyouz.com kutubxonasi







7. A. Qaysi parrakni olamiz?
B. ........................................

8. A. Qaysi sirg'ani olay?
B. ..................................







9. A. Gul ekaymi - yoki sabzavot?

B. ..............................................

10. A. Salimadan pianino o'rganaymi
yoki Feruzadan?

B. ...............................................







11. A. Qaysi shlyapani olay?
B. .......................................

12. A. Qaysi kafega boramiz?
B. .......................................







13. A. Qaysi qo'lqopni olay?
B. ......................................

14. A. Qaysi kutubxonaga kiray?
B. ..............................................






15. A. Kimga uylanay?

B. ..............................

16. A. Kimni ishdan bo'shatay?
Alinimi yoki Murodnimi?

B. ..........................................

17. ________



www.ziyouz.com kutubxonasi




## YOSHLARGA OSON EMAS

Yaxshi farzand bo'lishga harakat qilyapman, lekin qancha harakat qilsam ham ota-onamni mamnun qilolmayapman. Ular sog'liqqa foydali ovqatlar yeyishimni, jiddiyroq kiyinishimni va yaxshi baholar olishimni xohlaydilar. Ularga ko'ra, sochim qisqaroq bo'lishi, xonam doim yig'ishtirilishi va do'stlarim meni ko'rishga kelishganda kamroq shovqin qilishlari kerak.

Ko'rdingizmi, yoshlarga oson emas.



## OTA - ONAGA OSON EMAS

Yaxshi bir ota-ona bo'lishga harakat qilyapmiz. Lekin qancha harakat qilsak ham bolalarimizni mamnun qilolmayapmiz. Ular bizning modaga mos kiyinishimizni, eng yangi mashinalardan olishimizni va qiziqarliroq muziqa tinglashimizni xohlashadi. Ularga ko'ra, muammolarini eshitib qiziqishimiz, do'stlari uyimizga kelishganda muloyimroq bo'lishimiz kerak. Eng muhimi, ko'cha aylanib kech qaytishsa ularni tushunishimizni istashadi.

Ko'rdingizmi, ota-onalarga oson emas.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| mamnun qilmoq | - (to) please | oson emas | - not easy |
| qaraganda | - than | harakat qilmoq | - (to) try |
| jiddiyroq | - more serious | muammo | - problem |
| shovqin | - noise | eng muhimi | - the most important |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# XAFA BO'LMA!

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| mening ishim | - | meniki | - | bizniki |
| sening uying | - | seniki | - | sizniki |
| uning qalami | - | uniki | - | ularniki |



A. Bilasanmi, mening itim sening itingchalik sodiq emas.

B. Xafa bo'lma. Seniki menikichalik sodiq. Hatto seniki menikidan sodiqroq.



A. Bilasanmi, mening romanim Tolstoyning romanichalik qiziqarli emas.

B. Xafa bo'lma. Seniki Tolstoynikichalik qiziqarli. Hatto seniki Tolstoynikidan qiziqarliroq.



(tez)
1. mening mashinam
   sening mashinang



(qulay)
2. mening mebelim
   sening mebeling



(saxiy)
3. mening boshlig'im
   sening boshlig'ing



(aqlli)
4. mening bolalarim
   sening bolalaring



(katta)
5. mening uyim
   ularning uyi



(toza)
6. mening xonam
   Alining xonasi



(yaxshi)
7. talaffuzim
   Botirning talaffuzi



(muhim)
8. mening ishim
   sening ishing

9.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# FIKRINGIZGA QO'SHILAMAN. FIKRINGIZGA QO'SHILMAYMAN.




**- FIKRINGIZGA QO'SHILAMAN. SIZ BILAN BIR XIL FIKRDAMAN.**

A. - Menimcha, o'zbeklar olmonlardan mehmondo'stroq.
B. - To'g'ri aytdingiz. Fikringizga qo'shilaman.
Ha, siz bilan bir fikrdaman.

**- FIKRINGIZGA QO'SHILMAYMAN. SIZ BILAN BIR XIL FIKRDA EMASMAN.**

A. Olmonlar o'zbeklardan boyroq.
B. Yo'q, adashyapsiz. Fikringizga qo'shilmayman.
Yo'q, siz adashyapsiz. Siz bilan bir xil fikrda emasman.

A. Menimcha, sanoat qishloq xo'jaligidan muhimroq.
Fikrimga qo'shilasizmi?
B. ..........................................................................................

A. Menimcha boylik faqirlikdan afzalroq. Men bilan bir xil fikrdamisiz?
B. ......................................................................................................................



www.ziyouz.com kutubxonasi

sovuq - eng sovuq
baxtli - eng baxtli
saxiy - eng saxiy
samimiy - eng samimiy

issiq - eng issiq
katta - eng katta
baland - eng baland
uzun - eng uzun



A. Men bilgan eng saxiy kishi do'sting Abror.

B. Ha, Abror haqiqatan shunday. Abror men bilgan eng saxiy odam.



1. jiyaning
(samimiy)



2. amaking Rasul
(baxtli)



3. ota-onang
(qattiqqo'l)



4. katta akangiz
(uyatchan)



5. Laylo
(go'zal)



6. Ravshan
(dangasa)



7. kursimizdagi talabalar
(tirishqoq)



8. Zebi xolang
(sovuq)



9. qo'shning Ali
(to'polonchi)

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| menimcha | - in my opinion | adashmoq | - (to) confuse |
| fikringga qo'shilaman | - I agree with you | saxiy | - generous |
| tirishqoq | - diligent, hard-working | to'polonchi | - naughty |



www.ziyouz.com kutubxonasi

# MEN BILGAN ENG ( JUDA, G'OYAT) TIRISHQOQ ODAM ...

harakatchan - eng harakatchan
uyatchan - juda uyatchan
tez - juda tez
sekin -juda sekin

qimmat - eng qimmat
arzon - eng arzon
semiz - eng semiz
sabrli - eng sabirli



A. Buvingiz juda harakatchan deb o'ylayman.

B. Ha, haqiqatan ham shunday. Men bilgan eng harakatchan odam buvimlardir.



1. o'g'lingiz
   odobli



2. Kamol
   jahldor



3. O'zbek tili o'qituvchisi.
   sabrli



4. singlingiz
   tirishqoq



5. Nargiza
   qobiliyatli



6. yuqori qavatdagi qo'shnimiz
   xushchaqchaq



7. past qavatdagi qo'shnimiz
   kamgap



8. egizak ukalaringiz
   yoqimtoy



9. bobongiz
   saxiy



10. Mastura
    halol

11.



www.ziyouz.com kutubxonasi

# O'QISH



### Eng yaxshi odam

Er-xotin Sobirovlar qizlari bilan faxrlanadilar. Haqiqatdan ham, qizlari Laylo juda yaxshi qiz. U juda odobli, samimiy va madaniyatlidir. Shu bilan birga juda yoqimtoydir.

Er-xotin Sobirovlarning qo'shnilari ularga havas bilan qarashadi. Ular Layloni eng yaxshi inson deyishadi. Fikrlaricha, tanish-bilishlari orasida eng odobli, eng yoqimtoy, eng samimiy va eng madaniyatlisi Laylodir.



### Eng yomon it

Er-xotin Olimovlar itlaridan shikoyat qiladilar. Ularning iti juda yalqov, qopag'on, aqlsizdir. Qo'shnilari ham undan shikoyat qiladilar. Fikrlari-cha, Olimovlarning iti ular bilgan itlarning eng yomonidir.

---

A. Laylo tanishlarimning orasida eng yaxshi inson.
B. Gapingizga qo'shilaman. Men tanigan eng yaxshi inson udir.




**Siz tanigan eng yomon odam** | **Kim?**
**Nega?**

**Siz tanigan eng yaxshi odam** | **Kim?**
**Nega?**



www.ziyouz.com kutubxonasi

# KICHIK BIR RADIO OLMOQCHIMAN

| | |
|---|---|
| kichik bir radio | katta bir radio |
| kichikroq bir radio | kattaroq bir radio |
| yumshoq bir o'rindiq | yaxshi bir magnitofon |
| yumshoqroq bir o'rindiq | yaxshiroq bir magnitofon |



A. Marhamat, keling. Sizga nima kerak?
B. Rahmat. Kichik bir radio olmoqchi edim.
A. Menimcha, mana bu sizga yoqadi, bu kichik.
B. Bundan kichikroq radio yo'qmi?
A. Boshqasi yo'q. Do'kondagi eng kichik radio - shu.
B. Mayli, katta rahmat sizga.
A. Xafa bo'lmang, sizga yordam berolmadim. Kelib turing.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| faxrlanmoq | - (to) be proud of | shikoyat qilmoq | - (to) complain |
| hayotda | - alive | boshqasi yo'qmi? | - isn't there another one |
| xafa bo'lmang | - don't be sad, don't despair | | |



www.ziyouz.com kutubxonasi

A. Marhamat, aka (opa) ................................ ?
B. Rahmat. Kichik bir magnitofon ..............
A. Menimcha, .................................................
B. Bundan kichikroq magnitofon ................ ?
A. Boshqasi ....................................................
B. Mayli, ........................................................
A. Xafa bo'lmang ..........................................



keng muzlatgich



qulay kreslo



yaxshi bir patifon



chiroyli bir galstuk



sifatli bir soat



yaxshi bir stol



qulay bir magnitofon



yengil bir raketka



ajoyib bir ko'ylak



zamonaviy bir divan



kichik bir roman



www.ziyouz.com kutubxonasi




**– BAHROMNING SAVDO DO'KONI –**

Tumandagi eng arzon do'kon Bahromning savdo do'konidir. Shu bilan birga, bu yer eng arzon bo'lishiga qaramay, savdo yaxshi bo'lmaydi. Odamlar bu yerdan narsa sotib olmaydilar. Chunki, mollari juda sifatsiz. Do'kondagi narsalar eng sifatsiz mollardir. Shuning uchun odamlar Bahromning do'konidan xarid qilmaydilar.




**– UMARNING SAVDO DO'KONI –**

.........................................................................................................

.........................................................................................................

.........................................................................................................

.........................................................................................................

.........................................................................................................

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| savdo do'koni | - commercial shop, store | eng arzon | - the cheapest |
| sifatsiz | - poor quality | mol (tovar) | - goods |



www.ziyouz.com kutubxonasi




## SUPERMARKET DO'KONLARI

Supermarketlar shahrimizda diqqatni o'ziga eng ko'p tortadigan do'konlardan. Bu do'konlarda shaharning eng arzon mollari yo'q', eng sifatli mollar ham yo'q. Gapning ochig'i, bu do'kondagi mollar juda arzon ham emas, juda qimmat ham emas; juda sifatli ham emas, juda sifatsiz ham emas. Bu do'konlarda hamma narsa me'yorida.

Bu yerdagi mebellar shaharning eng go'zal mebellari emas, ammo do'konlardagi bir qancha mebellardan go'zalroq. Kiyimlar shaharning eng yangi modasida emas, lekin boshqa bir qancha do'konlardan oladigan kiyimlardan ko'ra modaga mosroq. Sotiladigan jihozlar eng sifatlilari emas, ammo boshqa do'konlardagidan sifatliroqdir. Shuningdek, do'konlarning joylashgan yeri ham juda yaxshi. Bundan tashqari, sotuvchilar muomalali va ochiq yuzli kishilardir.

Nima uchun supermarketlar shahrimizdagi eng sevimli do'konlar ekanligini tushundingizmi?

Bu do'konlarda narxlar o'rtacha, mollar sifatli, sotuvchilar ochiq yuzlidir.




- Shahringizning qayerlarida savdo-sotiq qilinadi?
- Bu do'konlarda nimalar sotiladi?
- Sotilgan mollarning sifati va narxlari qanday?
- Do'kondagi sotuvchilarning muomalasi qanaqa?
- Do'kon joylashgan joyni tushuntiring.

**Lug'at**

| | | | |
|---|---|---|---|
| gapning ochig'i | - frankly | jihoz | - equipment |
| me'yorida | - reasonable | narx | - price |
| bundan tashqari | - moreover, further more | muomalali | - gentleman |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yaxshiroq | | yomonroq |
| juda | yaxshi | juda | yomon |
| | yaxshi | eng | yomon |

Quyidagi savollarni o'qing va javob bering. Sababini izohlang.

**SIZNING-CHA**




1) Shahringiz (tumaningiz)dagi eng mashhur artist kim?

2) Televizion dasturlarning qaysisi eng mashhur?

3) Eng yaxshi qo'shiqchi kim?

4) Qaysi jurnal eng muhim?

5) Tarixingizda eng muhim kishi kimdir?

6) Yurtingizdagi eng chiroyli shahar qaysi?

7) Yurtingizdagi eng yangi shahar qayerda?

8) Yurtingizdagi eng qiziqarli turistik joy qayerda?

9) Yurtingizdagi eng yaxshi oromgoh qayerda?

10) Eng tanilgan mashina qaysi?

11) Yurtingizdagi eng ommabop sport turi qaysi?

12) Yurtingizdagi eng yaxshi gazeta qaysi?

13) Yurtingizdagi qaysi jurnal eng ommabop?

14) Eng mashhur ovqat qaysi?

**A. - Dunyodagi eng eski shahar qaysi?**
**B. - ..........................................................**
**A. - Hozirgi kunda dunyodagi eng mashhur kishi kimdir?**
**B. - ..........................................................................................**



www.ziyouz.com kutubxonasi

# LUG'AT

| | |
|---|---|
| Assalomu alaykum | - hello |
| Ismingiz nima | - what is your name |
| qayerliksiz | - where are you from |
| kasb | - job |
| rahmat | - thank you |
| behad xursandman | - I am very glad |
| o'qituvchi | - teacher |
| quruvchi | - builder |
| bastakor | - composer |
| bojxona | - customs |
| rassom | - artist |
| ko'cha | - street |
| manzil(im) | - (my) address |
| to'pchi(man) | - (I am) a football player |
| shifokor | - doctor |
| maktab | - school |
| dars | - lesson, class |
| xayrli kech | - good night |
| arzimaydi | - you are welcome |
| salomat bo'ling | - be healthy |
| ota | - father |
| buva | - grandfather |
| suzuvchi | - swimmer |
| kitob | - book |
| qishloq | - village |
| tilak | - wish |
| bog' | - garden |
| mo'ri | - flue |
| tom | - roof |
| yotoqxona | - pansion |
| hammom | - bathroom |
| daraxt | - tree |
| oshxona | - kitchen |
| arg'imchoq | - swing |
| yerto'la | - basement |
| mehmonxona | -hotel |
| hovli | -yard |
| muzlatgich | -refrigerator |
| yonida | -nearby, close to |
| qarshisida | -in front of |
| zina tagida | -under stairs |
| qahvaxona | -cafe |
| kutubxona | -library |
| oromgoh | -park |
| oila | -family |
| tuzatmoq | -to repair |
| band | -busy |

| | |
|---|---|
| aloqa bo'limi | - post office |
| kasaixona | - hospital |
| hayvonot bog'i | - zoo |
| davolamoq | - to treat |
| sinf | - classroom |
| bugun | - today |
| uy(da) | - (at) home |
| do'kon | - shop |
| ta'til | - holiday, vacation |
| bozor | - market |
| tog' | - mountain |
| yashamoq | - to live |
| dehqonchilik | - farming |
| maydon | - square |
| singil | - little sister |
| aka | - brother |
| dengizda suzmoq | - to swim in the sea |
| suhbatlashmoq | - to have a chat |
| to'y | -wedding party |
| yig'lamoq | - to cry |
| uxlamoq | - to sleep |
| chalmoq | - to play(musical instrument) |
| devor | - wall |
| oqlamoq | - to paint white |
| hordiq chiqarmoq | -to have a rest |
| dars tayyorlamoq | - to do lesson |
| idish yuvmoq | -to wash up dishes |
| nonushta | -breakfast |
| tushlik | - lunch |
| kechki ovqat | - supper |
| o'ynamoq | -to play |
| sharbat | - juice |
| qo'shiq aytmoq | -to sing a song |
| tinglamoq | - to listen to |
| raqs tushmoq | -to dance |
| havo yaxshi | - the weather is good |
| quyosh | -sun |
| charaqlab turmoq | -to shine |
| qush | -bird |
| sayramoq | -to sing (birds) |
| dam olmoq | - to rest, to relax |
| xursand | -happy |
| gul o'tqazmoq | -to plant a flower |
| oshqozon | - stomach |
| xafa | -sad, unhappy |
| janjallashmoq | -to quarrel |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | |
|---|---|
| yuvmoq | -to wash |
| nima qilmoq | -what to do |
| non pishirmoq | -to bake a bread |
| novcha | -tall |
| pakana | -short |
| yosh | -young |
| keksa | -old |
| semiz | -fat |
| ozg'in | -thin |
| yangi | -new |
| eski | -old |
| chiroyli | -beautiful, handsome |
| xunuk | -ugly |
| kelishgan | -good lookly |
| boy | -rich |
| kambag'al | -poor |
| ko'rimsiz | -insignificant |
| oilali | -married |
| yolg'iz | -single |
| dangasa | -lazy |
| mehribon | -kind |
| shirin | -sweet |
| achchiq | -bitter |
| qattiq | -hard |
| yumshoq | -soft |
| baland | -tall |
| past | -short |
| arzon | -cheap |
| qimmat | -expensive |
| imorat | -building |
| keng | -wide |
| tor | -narrow |
| qo'shni | -neighbour |
| havo ochiq | -the weather is sunny |
| bulut | -cloud |
| yomg'ir yog'moq | -to rain |
| qor | -snow |
| iliq | -warm |
| issiq | -hot |
| sovuq | -cool |
| xat | -letter |
| tashqari | -outside |
| kasal | -ill, sick |
| iste'mol qilmoq | -to eat, to use |
| jun | -wool |
| dur | -pearl |
| kumush | -silwer |
| sintetik | -synthetic |
| metal | -metal |
| dushanba | -monday |

| | |
|---|---|
| charchamoq | -to be tired |
| kelin | -bride |
| guldasta | -a bunch of flowers |
| eslamoq | -to remember |
| qarshisida | -in front of |
| | |
| bekat | -bus stop, station |
| dorixona | -drugstore |
| sartaroshxona | -barbery |
| muzey | -museum |
| javon | -locker shelf |
| nechta | -how many |
| deraza | -window |
| qavat | -floor |
| soat | -watch,clock |
| sichqon | - mouse |
| mushuk | - cat |
| ko'ylak | - shirt,dress |
| galstuk | - tie |
| poyabzal | - shoe |
| kostyum | - jacket,suit |
| botinka | - boot |
| qizil | - red |
| qora | - black |
| yashil | - green |
| sariq | - yellow |
| yo'l-yo'l | - striped |
| xunob | - bored |
| kir | - dirty |
| toza | - clean |
| siyohli ruchka | - inkpen |
| qalam | - pencil |
| qo'lqop | - glove |
| plash | - raincoat |
| zirak | - earrings |
| sviter | - sweater |
| ko'zoynak | - glasses |
| sumka | - bag |
| bayram | - holiday |
| xolli | - spotted |
| hamyon | - packet , wallet |
| taqinchoq | - jevelery |
| o'yinchoq | - toy |
| tilla | - gold |
| idish-tovoq | - dishes |
| vanna | - bath |
| qoshiq | - spoon |
| sinmoq | - to break |
| radio | - radio |
| tinglamoq | - to listen to |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| seshanba | -tuesday | magnitofon | - tape recorder |
| chorshanba | -wednesday | telefon | - telephone |
| payshanba | -thursday | ishlamoq | - to work |
| juma | -friday | shahmat | - chess |
| shanba | -saturday | shashka | - drauht |
| yakshanba | -sunday | g'ijjak | - gichak |
| xaridor | -customer | pianino | - piano |
| ovqat | -food, meal | oshpaz | - cook |
| gaplashmoq | -to speak | usta | - master |
| gaplashmayman | -I don't speak | ashula | - song |
| gaplashaman | -I speak | tanishmoq | - to introduce |
| hafta | -week | muhandis | - engineer |
| bormoq | -to go | qidirmoq | - to look for |
| kecha | -yesterday | rasm | - picture |
| do'st | -friend | transport | - transport |
| kino | -movie | hayachonlanmoq | - to be excited |
| komediya | -comedy | oq-qora rasm | - colorless photo |
| yozuvchi | -writer | cho'milmoq | - to swim, to bath |
| sport | -sport | chang'i | - ski |
| xat yozmoq | -to write a letter | teatr | - theatre/er |
| bo'yamoq | -to paint | dengiz | - sea |
| tozalamoq | -to clean | ertalab | - in the morning |
| yuvmoq | -to wash | kechqurun | - in the evening |
| o'ylamoq | -to think | oqshom | - evening |
| yemoq | -to eat | o'tkazmoq | - to get over,to pass |
| yozmoq | -to write | dazmollamoq | - to iron |
| tuzatmoq | -to repair, to fix | ichmoq | -to drink |
| ko'z | -eye | yomg'ir | -rain |
| it | -dog | xohlamoq | -to want |
| kalta | -short | o'tdi | -passed |
| soch | -hair | lozim | -nesesuary |
| uzun | -long | chorak | -quarter |
| farq | -difference | kam | -not enough |
| kulmoq | - to laugh | daqiqa | -minute |
| baqirmoq | -to cry, to shout | uylanmoq | -to get married |
| suvsiramoq | -to be thirsty | ish | -work, labour, job |
| terlamoq | -to sweat,to perspire | mehmon kutish | -have guests |
| qazmoq | -to dig | taklif qilmoq | -to invite |
| esnamoq | -yawn | tayyorgarlik | -preporation |
| xafa | -sad, unhappy | kun bo'yi | -all day |
| asabiy | -angry,nervous | ekmoq | -to plant |
| supurmoq | -to sweep | foydalanmoq | - to use |
| pishirmoq | -to cook | sap-sariq | -yellow |
| munosabat | -relation | oppoq | -white |
| tomosha qilmoq | -to watch | ko'rimsiz | -ugly |
| ovqat suzildi | -the meal is ready | bo'sh | -empty |
| hordiq chiqarmoq | -to relax, to have a rest | shinam | -comfortable |
| ko'rsatmoq | -to show | xira | -not bright |
| xohlamoq | -to want | yaltiroq | -shiny |
| haqida | -about | tug'ilmoq | -to be born |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | |
|---|---|
| mehmonga chaqirmoq | -to invite |
| soch taramoq | -to comb |
| o'tgan kun | -the day before |
| bahor | -spring |
| yoz | -summer |
| kuz | -fall,autumn |
| qish | -winter |
| rubob chalmoq | -to play rubob |
| ulgurmoq | -to catch, to be in time |
| piyoda yurmoq | -to walk |
| kech qolmoq | -to be late |
| koyimoq | -to scold |
| yomon o'tmoq | -to pass badly |
| nega | -why? |
| nima uchun | -what for? why? |
| chunki | -because |
| shug'ullanmoq | -to deal with to spend time on |
| nonushta qilmoq | -to have a breakfast |
| baqirmoq | -to shout, to cry |
| tuman markazi | -center of the town |
| to'g'ri gap | -right sentence |
| boshliq | -head ,boss |
| o'z vaqtida | -in the time |
| baribir | -any way |
| jahl qilmoq | -to be angry |
| baxtli bo'lmoq | -to be happy |
| kuchsiz | -weak |
| charchamoq | -to be tired |
| baquvvat | -strong |
| sinab ko'rmoq | -to experience |
| turmushga chiqmoq | - to marry |
| uylanmoq | -to get married |
| ozg'in | -thin |
| badantarbiya | -physical training |
| sovun | -soap |
| sog'lom | -healthy |
| parhez | -diet |
| kir(iflos) | - dirty |
| qalampir | - pepper |
| piyoz | - onion |
| sarimsoq | - garlic |
| qahva | - coffee |
| choy | - tea |
| asal | - honey |
| murabbo | - jam |
| guruch | - rice |
| bug'doy | - wheat |
| no'xat | - chickpea |
| nok | - pear |
| uzum | - grape |

| | |
|---|---|
| poyafzal | -shoe |
| ko'chib kelmoq | -to escape |
| yashamoq | -to live |
| o'z ustida | -on hiz own |
| kotiba | -secratary |
| kelajak | -future |
| baxt tilayman | -I wish you happiness |
| sho'x | -naughty |
| yoqimli | -enjoyable |
| injiq | -capricious |
| nima sababdan | -why, for what reason |
| o'ynamoq | - to play |
| yoqtirmoq | -to like |
| kiyim | -clothes |
| bilasizmi? | -do you know? |
| unutmoq | -to forget |
| tug'ilgan kuningiz bilan | -happy birthday |
| tabriklamoq | -to conguragulate |
| uzoqda | -far away |
| yaqin do'st | -close friend |
| tasvirlamoq | -to describe |
| esdan chiqarmoq | -to forget |
| sirg'a | -earrings |
| sovg'a | - present, gift |
| ko'nglini ko'tarmoq | -to make happy |
| o'sib ulg'aymoq | -to grow up |
| yordam bermoq | -to help |
| ajralmoq | -to break off |
| bir-birimiz | -each other |
| ziyorat qilmoq | -to visit |
| xabarlashmoq | -to correspond |
| biror marta | -once |
| pomidor | - tomato |
| tuxum | -egg |
| banan | -banana |
| pishloq | -cheese |
| sut | -milk |
| shakar | - sugar |
| joniga tegmoq | - to make bored |
| sayrga chiqmoq | - to go for a walk, walk around |
| sevinmoq | - to be happy |
| fasl | - season |
| ehtiyot bo'l | - watch out, be careful |
| shikastlanmoq | - to be injured |
| ogohlantirmoq | - to warn |
| sirpanchiq | - slippery, sliding |
| qo'rqmoq | - to be afraid of |
| dastgoh | - tool |
| yiqilmoq | - to fall down |
| o'ylab ko'rmoq | - to think |



www.ziyouz.com kutubxonasi

| | | | |
|---|---|---|---|
| qovun | - melon | buning o'rniga | - instead of this |
| tuz | - salt | his etmoq | - to feel |
| sariq yo'g' | - butter | borgan ma'qul | - It will be good to go |
| zaytun | - olive | ishonmoq | - to trust |
| qatiq | - yogurt | chalinmoq | - to feel ill |
| tayyorlamoq | - to prepare | mumkin | - may, can |
| ko'p emas | - a little bit, not much | kengroq | - wider |
| qancha istaysiz | - how much do you want | yoqmoq | - to like |
| muzqaymoq | - ice - cream | sodiq | - faithful |
| qovurulgan | - fried, roasted | qulay | - easy |
| dona | - a piece | ishonchli | - trustful |
| hayron | - astonishment | ko'chmoq | -to move |
| olishiga qaramay | - inspite of , the fact that being | mamnun qilmoq | - to make happy |
| pul to'lamoq | - to pay money | qaraganda | -than |
| bir necha | -some | jiddiyroq | - more serious |
| har doim | -always | shovqin | - noise |
| aytishiga qaramay | -inspite of saying | oson emas | - uneasy, not easy |
| lazzatli | -sweet tasty, delicious | muammo | - problem |
| foydali | -helpful | eng muhimi | - the most important |
| och | -hungry | menimcha | - in my opinion |
| xarid qilmoq | -to buy | adashmoq | - to confuse |
| ro'yxat | -list | fikringga qo'shilaman | - I agree with you |
| tugamoq | -to end, finish | saxiy | - generous, liberal |
| ehtiyoj | -need | tirishqoq | - hard working, diligent |
| ishtahasi yo'qolmoq | - to lose appetite | to'polonchi | - naughty |
| nishonlamoq | -celebrate | faxrlanmoq | - to be proud of |
| muqaddas | -sacred, holy | shikoyat qilmoq | - to have a complaint against |
| buyurtma | -order | hayotda | -alive |
| buyurmoq | -to order | boshqasi yoqmi | -isn't there another one |
| ajoyib | -wonderful | xafa bo'lmang | -don't be sad |
| xushbo'y | -good smelling | yumshoqroq | -softer, gentler |
| sog'inmoq | -to miss | savdo do'koni | - commercial shop |
| zerikmoq | -to be bored | sifatsiz | - poor quality |
| haydamoq | -to drive, to ride(a bike) | eng arzon | - the cheapest |
| ochilmoq | -to be opened | mol (tovar) | -goods |
| qiziq | -interesting | gapning ochig'i | - frankly speaking |
| mahalla | -neighbourhood | me'yorida | -in the norm of |
| o'zgarmoq | -to change | bundan tashqari | -on the other hand, furthmore |
| eskiday | -as before | jihoz | -equipment, device |
| qo'shni | -neighbour | narx | -price |
| samimiy | - sincere, cordial | olijanob | -gentleman |

"РАСТР" Ўзбекистон-Британия қўшма корхонасида чоп этилди. Буюртма № 620.

www.ziyouz.com kutubxonasi